

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH BO'YICHA**

Dastur va uslubiy qo'llanma

**Toshkent – 2020**

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma buyuk shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodini oliy ta'lim muassasalarida o'qitish uchun ishlab chiqildi.

Dasturda Bobur hayoti va ijodining barcha jabhalarini qamrab olishga harakat qilindi. Qo'llanmada taqdim etilgan Bobur hayoti va faoliyati, ijodiy merosiga doir ma'lumotlar aniq manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, Boburning hayot yo'li, asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni talaba-yoshlarga tushunarli qilib yetkazish maqsadida shoir asarlarining ma'rifiy qimmati, tarbiyaviy ahamiyati hamda estetik vazifalariga alohida e'tibor berildi.

Mazkur dastur va uslubiy qo'llanma Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganish yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

**Shuhrat Sirojiddinov,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

Tuzuvchilar:

**Iqboloy Adizova,**  
filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

**Karomat Mullaxo'jaeva,**  
filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent

Taqrizchilar:

**Nusratulla Jumaxo'ja,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

*Mazkur uslubiy qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil 21-avgustdaggi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.*

## I. KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘qitish bo‘yicha dastur oliv ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur kursning maqsadi, vazifalari va mazmuni ifodalangan, Boburning hayot yo‘li, ijodi yoritilgan, ijodiy merosi – she’riyati, “Boburnoma” asari hamda risolalari va tarjima asari – “Voldiyya” asarlarini o‘rganish yo‘llari ko‘rsatilgan. Ularni singdirish dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha o‘tiladigan turkum mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi.

## II. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING MAQSADI

Talaba-yoshlarda milliy merosimiz va qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Bobur hayoti va ijodini o‘rganishning zarurligini tushuntirish, Boburning hayot yo‘li va asarlarini o‘rganish yoshlar ma’naviy dunyosining kamol topishida, shaxs sifatida shakllanishida hamda estetik didini shakllantirishda muhim ekanligini ko‘rsatish, Boburning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.

Fanni o‘qitishdan maqsad – Zahiriddin Muhammad Boburning jasoratga to‘la hayot yo‘li, boy adabiy va ilmiy merosi bo‘yicha ta’lim berish orqali talaba yoshlarda yuksak ma’naviyat va ma’rifatni tarbiyalash.

## III. FAKULTATIV O‘QUV KURSINING VAZIFALARI

- Bobur fenomeni, uning dunyo tarixi va madaniyatida tutgan o‘rni, baholanishini asoslab berish;
- shoh va shoир sifatidagi faoliyati hamda ijodiy merosiga asoslanib, Boburning xalqimiz tarixi, ma’naviyatimiz tarixi va adabiyotimizda tutgan o‘rni va mavqeini ochib berish;
- Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni shoир hayoti va ijodiga oid manbalar, tadqiqotlar hamda shoirlarning o‘z asarlariga tayanib xolisona yoritish;
- shoир lirkasida estetik ideal masalasini she’riyatida qo‘llangan janrlar mazmun-mohiyatiga bog‘lab ochib berish;
- Bobur she’rlarining mavzu ko‘lami – sevgi, vatan sog‘inchi, ma’rifat, axloq kabi ko‘plab masalalarning badiiy talqiniga e’tibor qaratish;
- shoир she’rlarida an’ana va o‘ziga xoslik, mumtoz shoirlar ijodidan bahramandlik hamda yangiliklarni tadqiq etish asnosida Bobur badiiy olamini kashf etish;
- “Boburnoma”da Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston haqidagi ko‘lamdor ma’lumotlarning tariximiz va o‘tmish madaniy hayotimizni o‘rganishdagi o‘rnini anglatish;

- “Boburnoma”da ijodkor shaxsi, shoirlar, ma’rifat ahli haqidagi fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyatini ko’rsatib berish;
- Boburnoma”dagi Bobur ma’naviy qiyofasini kashf etish;
- “Boburnoma”ning badiiy asar sifatidagi qimmatini tushuntirish;
- Bobur risolalari hamda tarjima asari – “Voldiya”ning ilmiy-ma’rifiy qimmatini ochib berish;
- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Bobur faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;
- Bobur asarlarini bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.

#### **IV. FAKULTATIV O‘QUV KURSINI O‘ZLASHTIRISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:**

- Zahiriddin Muhammad Boburning jasoratga to‘la hayot yo‘li, faoliyati hamma zamonlarda inson ma’naviyatini shakllantirish, uni kamolga yetkazishda o‘rnak bo‘lishi mumkinligini anglab yetishlari;
  - Bobur hayoti va ijodi yuzasidan ma’lumotga ega bo‘lishlari, o‘zlashtirgan bilimlarni to‘g‘ri mushohada eta olishlari;
  - Bobur ijodiy merosining o‘rganilishi tarixiga oid ma’lumotlarni yaxshi bilishlari;
  - Bobur she’rlarining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini anglab yetishlari;
  - “Boburnoma”da ilgari surilgan muhim g‘oyalar va unda ko‘tarilgan mavzumasalalarni tasniflashlari, talqin qila olishlari va Bobur ruhoni olamini idrok etishlari;
  - shoir lirkasida estetik ideal masalasini, she’riyatida qo‘llangan janrlar mazmun-mohiyatini bilishlari;
  - “Boburnoma”da ijodkor shaxsi, shoirlar, ma’rifat ahli haqidagi fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyati anglab yetishlari;
  - Boburnoma”dagi Bobur ma’naviy qiyofasini kashf eta olishlari;
  - “Boburnoma”ning badiiy asar sifatidagi qimmatini tushunishlari;
  - Bobur risolalari hamda tarjima asari – “Voldiya”ning ilmiy-ma’rifiy qimmatini anglab yetishlari;
  - yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Bobur faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib eta bilishlari;
  - Bobur asarlarini bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qilishga erishishlari.

## **V. FAKULTATIV O'QUV KURSINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LQLIGI**

Fakultativ o'quv kursi – “Milliy uyg'onish adabiyoti”, “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”. “Siyosatshunoslik”, “Milliy g'oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi.

## **VI. FAKULTATIV O'QUV KURSINING HAJMI VA MAZMUNI**

Fakultativ o'quv kursining hajmi:

<b>№</b>	<b>Mashg'ulot turi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
1	Ma'ruza	8
2	Muloqot	4
3	Munozara	4
4	Taqdimot	4
	<b>JAMI:</b>	<b>20</b>

Mashg'ulotlarning mavzulari, mazmuni, kutiladigan natija va ularga ajratilgan soatlarning miqdori:

	<b>Mavzular</b>	<b>Mazmuni</b> <b>MA'RUZALAR</b>	<b>Kutiladigan natija</b>	<b>soat</b>
				<b>8</b>
1	Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati	Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo'li – uning hukmdor sifatidagi faoliyati – harbiy yurishlari, siyosiy qarashlari, ijtimoyi faoliyati va axloqiyta'limiy fikrlari haqida ma'lumot beriladi. Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistondagi faoliyati shoirning o'zi va zamon-doshlari, jahon olimlari va siyosatchilarining fikrlari bilan izohlab tushuntiriladi. Shoh va shoir Boburning fenomenal hodisa ekanligi asarlari va hayot yo'liga bog'lab ko'rsatib beriladi. Bobur ijodiga munosabat, uning o'zbek va jahon	Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr, Boburning hayot yo'li, u olib borgan kurashlar haqida muayyan bilimga hamda Boburning shaxs sifatidagi qiyofasi haqida mukammal tasavvurga ega bo'ladilar. Bobur ijodining o'rganilishi haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.	2

		adabiyotshunsligida o‘rganilishi, boburshunoslikda erishilgan yutuqlar hamda istiqboldagi vazifalar borasidagi fikrlar bayon qilinadi.		
2	Bobur she’riyati	Boburning lirik merosi, devonlari haqida ma’lumot beriladi. Shoир g‘azallarining mavzu ko‘lami, badiiy xususiyatlari u yashagan davrdagi an’ana va o‘ziga xoslik masalasi doirasida tushuntiriladi, Bobur she’riyatidagi o‘ziga xoslik, realistik tasvir kabilarga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, ruboiy-lardagi ko‘ngil talqinlari, tafakkur evrilishlarining ona yurt sog‘inchi, o‘zlikni anglash kabi masalalar bilan bog‘lanib ketishi maxsus, misollar va ularning tahlili yordamida tushuntiriladi. Shoирning lirik turning boshqa janrlaridagi she’rlari mavzusi va badiiy xususiyatlarga bog‘lab tahliliy yo‘sinida taqdim etiladi.	Boburning lirik merosi, devonlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Shoир g‘azallari, ularning mavzu ko‘lami, badiiy xususiyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlash-tiradilar. Boburning boshqa lirik janrlardagi she’rlari, shu jumladan, ruboiylarida ko‘tarilgan mavzularni shoир shaxsi bilan bog‘lab tahlil qilish ko‘nikmasini egallaydilar.	2
3	“Boburnom” – memuar asar	Memuar asarga xos bo‘lgan muhim xususiyatlar haqida ma’lumot beriladi. Ya’ni muallifning o‘zi bilan bog‘liq voqealarni tasvirlashida uning dunyoqarashi, idrok ko‘lami, qamrovi, qiziqishlari va albatta, iste’dodining namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Boburning mukammal shaxs va nozik did sohibi ekanligi, qiziqishlari doirasi, orzu-istiklarining “Boburnoma”da aks etganligi tushun-	Memuar asarga xos bo‘lgan muhim xususiyatlar haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. Bunday asarda ijodkorning dunyoqarashi, idrok ko‘lami, qamrovi, qiziqishlari va albatta, iste’dodi muhimmilagini tushunib oladilar. Boburning mukammal shaxs va nozik did sohibi ekanligi, qiziqishlari doirasi, orzu-istiklarining “Boburnoma”da aks	2

		tiriladi. “Boburnoma”da adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarga oid masalalarning yoritilishi, nabototga oid, hayvonot olami haqidagi qimmatli ma’lumotlarning berilishi misollar yordamida ko’rsatib beriladi.	etganligi haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar. “Boburnoma”da adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarga oid masalalarning yoritilishi, nabototga oid, hayvonot olami bilan bog‘liq qimmatli ma’lumotlarni ega bo‘ladilar.	
4	Boburning tarjima asari (“Voldiya”) va risolalari.	Boburning Sharq mumtoz adabiyotiga, diniy manbalarga munosabati haqida, shuningdek Xoja Ahror Valiyga ruhoniy munosabati haqida hamda “Boburnoma”da bu masalalarning shoir tomonidan yoritilishi xususida ma’lumot beriladi. Ayniqsa, “Voldiya” asari, uni tarjima qilish jarayoniga oid tafsilotlarga e’tibor qaratiladi. Asarning mazmuni haqida talabalarga ma’lumot beriladi. Bobur-ning serqirra ijodkor ekanligi qiziqishlari va mas’uliyattiga bog‘lab tushuntiriladi. “Risolai aruz” asarinig mazmun-mohiyati tushuntiriladi. “Mubayyin” asarinig ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shu o‘rinda “Xatti Boburiy” (qisman yetib kelgan), “Risolayi musiqiy” (hali topilmagan) kabi asarlariga to‘xtab o‘tiladi.	Boburning “Voldiya” asari tarjimasi, bu asar va uning muallifi bilan bog‘liq tarfsilotlar, asarni tarjima qilish jarayoni haqidagi tasavvurga ega bo‘ladilar. Boburning serqirra ijodkor ekanligi, “Risolai aruz” (“Muxta-sar”), “Mubayyin” asarla-rining mazmun-mohiyati, ahamiyati haqida muayyan bilimga ega bo‘ladilar. Shoirning “Xatti Boburiy”, “Risolayi musiqiy” asarlari haqidagi tasavvurlari shakllanadi.	2
<b>SUHBAT-MULOQOTLAR</b>				4

1	Bobur she'riyatining mavzu ko'lami, janr xususiyatlari	Bobur she'rlarida an'anviy mavzularning davom etishi, ayni paytda ularning yangilanishi shoir she'rlari misolida tushuntiriladi. Bobur she'rlarida realist tasvir elementlarining kuchayishi, buning sabablari asoslanadi. Shoir she'rlarining mavzu ko'lami , shu jumladan, sevgi, visol, hijron, do'stlik, sadoqat, vatan, sog'inch motiv va mazulariga e'tibor qaratiladi. Shoir she'riyatining janrlari – g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq va boshqalar haqida tahliliy ma'lumotlar beriladi. Shoir ruboylarida ko'ngil talqinlari va tafakkur evrilishlari misollar yordamida tushuntiriladi.	Bobur she'rlarida an'anviy mavzularning davom etganligi va ayni paytda, ularning yangilanligini tushunib oladilar. Shoir she'rlarida realistik tasvir elementlarining kuchayishi, buning sabablari haqida muayyan xulosaga keldilar. Shoir she'rlarining mavzu ko'lami, shu jumladan, sevgi, visol, hijron, do'stlik, sadoqat, vatan, sog'inch motiv va mazulari haqida bilimlarini chuqurlashtiradilar. Shoir she'riyatining janrlari – g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq va boshqalar haqida tahliliy ma'lumotlar ega bo'ladilar. Shoir ruboylarida ko'ngil talqinlari va tafakkur evrilishlarini anglab yetadilar.	2
2	“Boburnoma” – serqirra, ma'lumotlarga boy manba	“Boburnoma”ning yaratilish tarixi bilan bog‘liq masala-larga to‘xtab, “Boburnoma”-da davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ular bilan bog‘liq holda tarixiy siymolar tasvirining berilishi va bunda ijodkorning mahorati misollar yordamida tushuntiriladi. Asardan adabiyotshunoslik tilshunoslik, san’atshunoslik, etnografiya, nabotot, hayvonot olami haqidagi fikrlar tanlab tahlil qilinadi. Shoirning badiiy mahoratiga (joylar tasviri, tarixiy shaxslar qiyofasini chizish,	“Boburnoma”ning yaratilish tarixi bilan bog‘liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar. “Boburnoma”da davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ular bilan bog‘liq holda tarixiy siymolar tasvirining berilishi va bunda ijodkorning mahorati haqida tasavvurga, bilimga ega bo'ladilar. Asarda muallif taqdim etgan turli ma'lumotlarni tasniflab sharhlashni o‘rganadilar “Boburnoma”ni tahlil qilishda adibning badiiy mahoratiga e'tibor qara-	2

		madaniy hayotni ta'riflash va boshqa masalalarda) alohida e'tibor qaratiladi.	tish muhimligi haqida xulosa chiqaradilar.	
<b>MUNOZARALAR</b>				<b>4</b>
1	Shoir lirikasida muhabbat va sog'inch talqini.	<p>Bobur she'rlarida muhabbat va sog'inch eng muhim mavzulardan biri ekanligi shoir Boburning iste'dodi va hayot yo'liga bog'lab tushuntiriladi. Shoir Sharqda mumtoz she'riyat an'analarni davom ettirish bilan birga o'z hasbi holini kuylashga moyil bo'lgani she'rlarida an'anaviy mavzu bilan bog'liq holda realistik voqelikning badiiy in'ikosini ko'rish mumkinligi ta'kidlanadi.</p> <p>Bobur g'azallaridagi ishq tug'yonlari yor sog'inchini, do'st hajri, unga mushtoqlik bilan uyg'unlashsa, ruboilyarida vatan sog'inch muhim o'rin tutishi g'azal va ruboilyar tahlili orqali tushuntiriladi.</p>	<p>Bobur lirik she'rlarining mavzu ko'lamenti aniqlashni, muhabbat va sog'inch mavzusidagi she'rlarini tahlil qilishni o'rganadilar.</p> <p>Bobur she'rlaridagi hasbi hol Sharq mumtoz she'riyatidagi an'analarni yangilashga, realistik voqelikning badiiy ifodalashga imkon berishini anglab oladilar.</p> <p>Boburning hasbi hol she'rlarini, ayniqsa, yurt sog'inchini aks etgan va armonga yo'g'rilgan ruboilyarini shoir hayoti va "Boburnoma"da aks etgan ma'lumotlar asosida tahlil qilish muhimligi haqidagi xulosalarga keladilar.</p>	2
2.	Bobur olim va tarjimon (risolalari va tarjima asarlari misolida)	<p>Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida noyob salohiyatlari adabiyotshunos olim sifatida tasavvur uyg'otishi, adabiyotshunoslikning ko'p masalalariga e'tibor qaratishi, shu bilan birga "Risolai aruz" kitobini yozganligi ta'kidlanib, bu asar haqida ma'lumot beriladi.</p> <p>Bobur fiqhga oid "Mubay-yin" nomli she'riy asari, farz asoslarini (imon, namoz, ro'za, zakot, haj) o'tash masalalarni nazarda tutgalligi va farzandlari uchun</p>	<p>"Boburnoma" asarida muallifning noyob ilmiy salohiyat namoyon bo'lishini idrok etadilar.</p> <p>Boburning adabiyotshunoslikning ko'p masalalariga e'tibor qaratishini tushunib oladilar, shu jumladan, "Risolai aruz" «Mubay-yin» "Voldiya" asarlarining yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, bugungi kundagi ma'rifiy qimmati haqida muayyan bilimlarni egallaydilar.</p> <p>Shoirning bizgacha to'liq yetib kelmagan "Xatti</p>	2

		<p>yozilganligi e'tiborni tortishi ta'kidlanadi.</p> <p>Zahiriddin Muhammad Boburning Xoja Ubaydulloh Ahror va ularning farzandu nevaralariga hurmat-e'tibori katta bo'lganligi haqidagi «Boburnoma»da tafsilotlardan foydalanilgan holda Xoja Ubaydulloh Ahrorning fors tilida nasrda yozilgan “Voldiya” asarini she'riy usulda o'zbek tiliga tarjima qilganligi haqidagi ma'lumotlar beriladi.</p> <p>Shuningdek, Boburning bizgacha to'liq yetib kelmagan “Xatti Boburiy” hamda musiqaga oid ayrim kitoblarda tilga olingan musiqaga oid risolasi uning qiziqishlari ko'lамини namoyon qilishi ta'kidlanadi.</p>	<p>Boburiy” hamda musiqaga oid ayrim kitoblarda tilga olingan “Risolai musiqiy” risolasi haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Boburning serqirra faoliyatni ilmiy-ma'rifiy qimmatini tushunib oladilar.</p>	
--	--	---	--	--

#### TAQDIMOT

4

1	Bobur bosib o'tgan yo'llar	<p>Bobur hayot yo'lining murakkabligi, jang-u jadal-larga to'laligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, Boburning hayotsevarligi, do'stu yorini e'zozlaydigan ko'ngil kishisi ekanligiga e'tibor qaratilib, bu sifatlar uning hayot yo'lini o'zig xos o'zanda kechishi olib kelganligi tushuntiriladi. Bobur hayot yo'li Movarounnahr, Afg'o-niston va Hindistondagi faoliyati uning shaxsiy sifatlari bilan bog'lab ko'rsatiladi, Boburning “Boburnoma”dagi iqrorlari, bu borada o'zi bitgan tafsilotlar tanlab olinib tahlil etiladi.</p>	<p>Bobur hayot yo'lining murakkabligi, jangu jadallarga to'laligi, shu bilan birga, uning hayotsevarligi, do'stu yorini e'zozlaydigan ko'ngil kishisi ekanligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar, shoirning hayotda erishgan yutuqlari mohiyatini tushunib yetadilar. Bobur hayot yo'lini – Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistondagi faoliyatini uning shaxsiy sifatlari bilan bog'lab idrok etishga o'rganadilar.</p> <p>“Boburnoma”dagi Boburning iqrorlarini, o'zi</p>	2
---	----------------------------	--	--	---

			haqida bitgan tafsilotlarga boy o‘rnlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradilar.	
2	Boburning asarlari (devonlari, “Boburnoma” va boshqa asarlari)	Zahiriddin Muhammad Boburning dunyo tarixiga kirgan sarkardalar qatorida alohida o‘ringa ega ekanligi va ayni paytda uning jahon madaniyati tarixida o‘z asarlari, ayniqsa, “Boburnoma” tufayli alohida o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Bu asar Bobur yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot voqeligini tasvirlash bilan birga, ko‘p sohalarga tegishli ma’lumotlarga boyligi bilan e’tiborni tortishi misollar bilan tushuntiriladi. Boburning devonlari, ular-dagi she’rlar maxsus ko‘rib chiqiladi. Boburning ilmiy (“Aruz risolasi”) va diniy mavzudagi (“Mubayyin”) asarlari hamda “Voldiya” asari tarjimasining nafaqat Bobur ijodidagi, balki adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.	Dunyo sarkardalari tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning alohida o‘ringa ega bo‘lishi bilan birga jahon madaniyati tarixida uning asarlari, ayniqsa, “Boburnoma”-ning alohida o‘rin tutishi sabablarini tushunib oladilar, asarning Bobur yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot voqeligini keng ko‘lamba tasvirlashi, ko‘plab sohalarga tegishli ma’lumotlarga boyligini tushunib yetadilar. Boburning devonlari, ular-dagi she’rlar haqida tegishli bilimlarni egalaydilar. Boburning ilmiy (“Aruz risolasi”) va diniy mavzudagi (“Mubayyin”) asarlari hamda “Voldiya” asari tarjimasining nafaqat Bobur ijodidagi, balki adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixidagi muhim ahamiyatini bilib oladilar.	2

## VII. “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI” KURSINING SILLABUSI

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>				
OTMning nomi va joylashgan manzili:				
Kafedra:	O‘zbek tili va adabiyoti			
Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:				
Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:				e-mail:
Dars vaqt va joyi:				Kursning davomiyligi:
Individual grafik asosida ishslash vaqt:				
Fanga ajratilgan Soatlari	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim: 30
	Ma’ruza:	8	Seminar	
Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi (prerekvizitlari):	Fakultativ o‘quv kursi – “Milliy uyg‘onish adabiyoti”, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “Pedagogika”, “Tarix”, “Madaniyatshunoslik”, “Milliy matbuot”. “Siyosatshunoslik”, “Milliy g‘oya va mafkura” va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi.			
<b>Fanning mazmuni</b>				
Kursning maqsad va vazifasi:	<p>Fanning asosiy maqsadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Talaba-yoshlarda milliy merosimiz va qadriyatlarga hurmat ruhini tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimiz bosib o‘tgan hayot yo‘lini o‘rnak sifatida ko‘rsatish, Bobur hayoti va ijodini o‘rganishning zarurligini tushuntirish, Boburning hayot yo‘li va asarlarini o‘rganish yoshlar ma’naviy dunyosining kamol topishida, shaxs sifatida shakllanishida hamda estetik didini shakllantirishda muhim ekanligini ko‘rsatish, Boburning bugungi milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy merosimiz xazinasida tutgan o‘rnini, qadr-qimmatini asoslashdan iborat.</li> </ul> <p>Zahiriddin Muhammad Boburning jasoratga to‘la hayot yo‘li, boy adabiy va ilmiy merosi bo‘yicha ta’lim berish orqali talaba yoshlarda yuksak ma’naviyat va ma’rifatni tarbiyalash.</p> <p>Fanning vazifasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Bobur fenomeni, uning dunyo tarixi va madaniyatida tutgan o‘rnini, baholanishini asoslab berish;</li> <li>– shoh va shoir sifatidagi faoliyati hamda ijodiy merosiga asoslanib, Boburning xalqimiz tarixi, ma’naviyatimiz tarixi va</li> </ul>			

	<p>adabiyotimizda tutgan o‘rni va mavqeini ochib berish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiga doir muhim ma’lumotlarni shoir hayoti va ijodiga oid manbalar, tadqiqotlar hamda shoirning o‘z asarlariga tayanib xolisona yoritish;</li> <li>– shoir lirkasida estetik ideal masalasini she’riyatida qo‘llangan janrlar mazmun-mohiyatini ochib berish ;</li> <li>– Bobur she’rlarining mavzu ko‘lami – sevgi, vatan sog‘inchi, ma’rifat, axloq kabi ko‘plab masalalarning badiiy talqiniga e’tibor qaratish;</li> <li>– shoir she’rlarida an’ana va o‘ziga xoslik, mumtoz shoirlar ijodidan bahramandlik hamda yangiliklarni tadqiq etish asnosida Bobur badiiy olamini kashf etish;</li> <li>– “Boburnoma”da Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindiston haqidagi ma’lumotlarning ko‘lamdorligi, ularning tariximiz va o‘tmish madaniy hayotimizni o‘rganishdagi o‘rnini anglatish;</li> <li>– “Boburnoma”da ijodkor shaxsi, shoirlar, ma’rifat ahli haqidagi fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyatini ko‘rsatib berish</li> <li>– Boburnoma”dagi Bobur ma’naviy qiyofasini kashf etish;</li> <li>– “Boburnoma” badiiy asar sifatidagi qimmatini asoslash;</li> <li>– Bobur risolalari va tarjima asari – “Voldiyya”ning ilmiy-ma’rifiy qimmatini tushuntirish;</li> <li>– yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’rifat va taraqqiyotga boshlash yo‘lida Bobur faoliyatidan, asarlaridan foydalanishni targ‘ib etish;</li> <li>– Bobur asarlarini bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qilish.</li> </ul>
Talabalar uchun talablar	<p>Fakultativ kursni o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Bobur hayoti va ijodining mazmun-mohiyati;</li> <li>– Bobur shaxssi va ijodiy merosining adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rni haqida <i>haqida tasavvurga ega bo‘lishi</i>;</li> <li>– Bobur ijodiy merosining o‘rganilishi tarixiga oid ma’lumotlarni;</li> <li>– Bobur she’rlarining mavzu ko‘lami, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini;</li> <li>– “Boburnoma”da ilgari surilgan muhim g‘oyalar va unda ko‘tarilgan mavzu-masalalarni tasniflashni, talqin qilishni;</li> <li>– Bobur ruhoniy olamini idrok etishni;</li> <li>– shoir lirkasida estetik ideal masalasini, she’riyatida qo‘llangan janrlar mazmun-mohiyatini ochishni <i>bilishi va ularda foydalana olishi</i>;</li> <li>– Boburning ziddiyatlarga to‘la hayot yo‘lini;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Bobur ijodi mohiyatini tushuntirib bera olish;</li> <li>– Bobur asarlarini tahlil qila olish;</li> <li>– Bobur shaxsiga, uning asarlariga turli zamonlarda munosabatlarning turlicha bo‘lganligini izohlay olish,</li> <li>– “Boburnoma”ning badiiy asar sifatidagi qimmatini ko‘rsata olish;</li> <li>– Bobur asarlarini bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqib tahlil qila olish <i>ko ‘nikmalariga ega bo ‘lishi kerak.</i></li> </ul>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

**Sillabus taqvim:**  
**O‘tiladigan mavzular ro‘yxati:**

Nº	Mavzular	Ma’ruza	Suhbat-muloqot	Munozara	Taqdimot
1	Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati	2 soat			
3	Bobur she’riyati	2 soat			
4	“Boburnoma” – memuar asar	2 soat			
6	Boburning tarjima asari (“Voldiya”) va risolalari.	2 soat			
8	Bobur she’riyatining mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari		2 soat		
9	“Boburnoma” – serqirra, ma’lumotlarga boy manba		2 soat		
11	Shoir lirikasida muhabbat va sog‘inch talqini			2 soat	
12	Bobur olim va tarjimon (risolalari va tarjima asari)			2 soat	
13	Bobur bosib o‘tgan yo‘llar				2 soat
14	Boburning asarlari (devonlari, “Boburnoma” va boshqa asarlari)				2 soat
Jami		8 soat	4 soat	4 soat	4 soat

Asosiy adabiyotlar:	<b>Asosiy adabiyotlar:</b>		
	1. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: Шарқ, 2014.		
	2. Захириддин Мухаммад Бобурнома. –Т.: Шарқ, 2002.		Бобур.
	3. Захириддин Мухаммад Бобурнома. Хозирги ўзбек адабий тилига		Бобур.

	<p>табдили.–Т.: “Ўқитувчи”, 2008.</p> <p>4. Бобур. Мухтасар. Т.: Фан, 1971.</p> <p>5. Захириддин Муҳаммад Бобур. Ғарибинг Андижонийдур.–Т.: “Шарқ” НМАК, 2008.</p> <p>6. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. –Т.: “O‘zbekiston”, 2011/</p> <p>7. Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати (“Ҳабиб ус-сияр”дан). – Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.</p> <p>Азимжонова С., Захириддин Муҳаммад Бобур./ Мақолалар тўплами. – Т., 1995.</p>
Qo‘sishimcha adabiyotlar:	<p>1. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб.– Т.: 1993</p> <p>2. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. –Т.: Фан, 1971.</p> <p>3. Ҳасан Қудратиллаев. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.</p> <p>4. Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. – Т.: Чўлпон, 1995.</p> <p>5. Гулбаданбеким. Ҳумоюннома. –Т.: “Маънавият”, 1998</p> <p>6. Турғун Файзиев. Бобур ва унинг авлодлари.–Т.,1996.</p> <p>7. Турғун Файзиев. Темурий маликалар.–Т., 1994.</p> <p>8. Вильям Рашибрук. Ўн олтинчи аср бунёдкори. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.</p> <p>9. Файбуллоҳ Ас-Салом, Неъматуллоҳ Отажон. Жаҳонгашта “Бобурнома”, – Т.,1996.</p> <p>Машрабов З., Шокаримов С., Асрларни бўйлаган Бобур. – Т., 1997.</p>
Fan dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti	<p>1. <a href="http://www.ziyouz.com">www.ziyouz.com</a></p> <p>2. <a href="http://www.e-tarix.uz">www.e-tarix.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.ziyouz.com">www.ziyouz.com</a></p>

**“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODI” KURSINI  
O’QITISHNING MA’RUZA TEKNOLOGIYASI**

<b>Mavzu: Bobur she’riyati</b>	
<b>Mashg‘ulot vaqtি – 2 soat</b>	<b>Talabalar soni nafar</b>
<b>O‘quv mashg‘ulotining shakli</b>	<b>Muammoli ma’ruza</b>
<b>Ma’ruza mashg‘ulotining rejasi</b>	<p>1. Bobur lirikasining manbalari. Devonlar. “Boburnoma”dagi she’riy parchalar.</p> <p>2. Bobur she’riyatining janr xususiyatlari.</p> <p>3. G‘azallarning mavzu ko‘lami: ishqiy, ma’rifiy, avtobiografik xarakterga ega g‘azallar.</p> <p>4. Ruboilyarda sharhi hol.</p> <p>5. Tuyuq va boshqa lirik janrlaridagi she’rlari.</p> <p>6. Boburning lirik mahorati.</p>
<b>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</b>	Bobur lirikasini tashkil etgan manbalar – devonlar, “Boburnoma”dagi she’riy parchalar haqida ma’lumot berish. Bobur she’riyatining janr xususiyatlari sharh va izohlar bilan tushuntirish. Ishqiy, ma’rifiy, avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan g‘azallarni mavzu doirasi asosida o‘rgatish. Boburning lirik mahoratini baytlar yordamida tahlil qilish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<p><b>O‘quv faoliyatining natijalari.</b></p> <p><i>Talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Talabalarga Bobur lirikasini tashkil etgan manbalar – devonlar, “Boburnoma”dagi she’riy parchalar haqida ma’lumot berish;</li> <li>– Bobur she’riyatining janr xususiyatlari sharh va izohlar bilan tushuntirish;</li> <li>– ishqiy, ma’rifiy, avtobiografik xarakterga ega bo‘lgan g‘azallarni mavzu doirasi asosida o‘rgatish;</li> <li>– Boburning sharhi holi ifodalangan ruboilyarni sharhlash, tahlil qilish;</li> <li>– shoirning tuyuq va boshqa lirik janrlardagi she’rlarida shakl va mazmun uyg‘unligi haqida ma’lumot berish;</li> <li>– Boburning lirik mahoratini baytlar yordamida tahlil qilish.</li> </ul>

	tahlili orqali tushuntirishni o'rganadilar.
<b>O'qitish uslubi va texnikasi</b>	Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "BBB" texnikasi
<b>O'qitish vositalari</b>	Ma'ruzalar matni, E-board, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar
<b>O'qitish shakli</b>	Jamoa va guruh bo'lib ishslash
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Elektron doska bilan jihozlangan xona

## MA'RUZA MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat	
	O'qituvchi	Talaba
<b>1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish. 10 daqiqa</b>	O'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi. Dars maqsadini aniq tushuntiradi, har bir bosqich uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlaydi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatadi.	Talabalar mashg'ulot mavzusi hamda bosqichlari, qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib oladilar. Jamoaviy ta'limi faoliyatga tayyor bo'ladilar, mavzuga nisbatan qiziqish shakllanadi.
<b>2-bosqich. Asosiy bosqich. 55 daqiqa</b>	Ma'ruza mashg'uloti rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'limgarayonini tashkil qiladi. Bobur lirkasining manbalari. Devonlar. "Boburnoma"dagi she'riy parchalar haqida ma'lumot beriladi. Bobur she'riyatining janr xususiyatlari tushuntiriladi. Shoir g'azallarning mavzu ko'lamiga e'tibor qaratiladi. Ruboilylardagi sharhi hol usuliga e'tibor qaratiladi. Tuyuq va boshqa lirkjanrlaridagi she'rlearning adabiy qimmati va Boburning lirk mahorati tushuntiriladi (ma'ruza matni tayanch o'quv axborotida keltiriladi). Ma'ruzanı bayon qilish davomida interfaol o'qitish	Mashg'ulot mavzusi bo'yicha nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni istashlari aniqlashtirib olinadi va bunda jadvalning 3-ustuni darsning yakuniy bosqichida to'ldiriladi. Talabalarda ta'limi faoliyatga nisbatan motivatsiya rivojlanadi, o'quv-bilish faoliyatları to'g'ri rejalshtiriladi. Ularda ta'limi maqsadlar asosida hamkorlikda ishslash, izlanish ko'nikmalari tarkib topadi. Talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollarga shaxsiy fikr, nuqtai nazarlaridan kelib chiqqan holda erkin fikr bildiradilar. O'rganayotgan muammo yuasadidan shaxsiy fikr, munosabat tarkib topadi, talabalar faollashadi.

	usullarini qo'llash orqali talabalarni faollashtirishga erishadi, talabalarga muammoli savollar bilan murojaat qiladi.	Taqdimotda keltirilayotgan ma'ruza matnini tezislar shaklida yozib oladilar. Talabalar faol hamkorlikda ta'lim olishni o'rganadilar, ularda onglilik va mas'uliyatlilik kabi kasbiy sifatlar shakllanadi. Refleksiya bosqichida talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli savollar xususida fikrlaydilar, o'z nuqtai nazarlarini bildiradilar.
<b>3-yakuniy bosqich. 10 daqiqa</b>	Talabalar tomonidan ma'ruzada keltirilgan o'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash maqsadida mavzuga oid kichik esse yozish topshirig'i beriladi. Ilmiy axborot muhokama qilinadi.	Ilmiy axborot yozishda faol ishtirok etadilar.
<b>Mustaqil ta'lim uchun topshiriq. 5 daqiqa</b>	Mavzuni to'liq o'zlashtirish, muloqot vositalarining har biriga misollar tayyorlab kelish.	Mavzu bo'yicha maqola tayyorlaydilar.

## **VII. KURS YUZASIDAN MASHG'ULOTLAR VA MUSTAQIL TA'LIM YUZASIDAN KO'RSATMALAR**

O'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'limgartarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;
- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'limgartarbiya jarayonini loyihalash;
- o'qitishning barcha shakllari: ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;
- o'qitishning asosiy shakllari bo'lgan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzuni mazmunini e'tiborga olgan holda axborot-kommunikatsion va pedagogik innovatsiyalarni uyg'unlashtirish va amalda qo'llash;

- mazkur jarayondan olingen natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ta'lismida interfaol ta'lismida texnologiyalarining quyidagi shakllar mavjud:



Ta'lismida innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi:

1. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra: pedagogik jarayonda yoki ta'lismida boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsiyiga ko'ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar.

Zamonaviy sharoitda ta'lismida samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish.

**“Interfaol”** tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) “inter” – o'zaro, ikki taraflama, “act” – *harakat qilmoq, ish ko'rmoq* kabi ma'nolarni anglatadi.

**Interfaol ta’lim** – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim hisoblanadi.

**Interfaollik** ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

An’anaviy ta’limda ham, tabiiy ravishda, suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzida o‘quvchi (magistrant)larga etkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchi (magistrant)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir.

### **Interfaol ta’limning asosiy belgilari**



Bugungi kunda respublika ta’lim muassasalarida interfaol ta’limning quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo‘llanilmoqda:



Keyingi yillarda ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosiy o‘rinni egallamoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlari ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim *shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim* deb nomlanadi. Ushbu ta’lim pedagog va magistrant o‘rtasidagi o‘zaro munosabat hamkorlik va tanlash erkinligiga asoslanib, magistrantni qadriyat sifatida e’tirof etilishini uchun sharoit yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining quyidagi turlari farqlanadi:

1. Modulli ta’lim texnologiyasi.
2. Muammoli ta’lim texnologiyasi.
3. Interfaol ta’lim texnologiyasi.
4. Individual ta’lim texnologiyasi.
5. Masofaviy ta’lim texnologiyasi.
6. Kompyuter ta’lim texnologiyasi.
7. Hamkorlik ta’lim texnologiyasi.
8. Loyiha ta’lim texnologiyasi.
9. Dasturiy ta’lim texnologiyasi.
10. Tabaqalashtirilgan ta’lim texnologiyasi.
11. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi.
12. O‘yin texnologiyalari.
13. Gender ta’lim texnologiyasi.
14. Quvvatni tejovchi ta’lim texnologiyasi.

Mazkur ta’lim texnologiyalaridan *modulli ta’lim*, *muammoli ta’lim* va *interfaol ta’lim texnologiyalarini* faol qo‘llash tavsiya qilinadi.

Ta’lim jarayonida faol qo‘llanayotgan innovatsion texnologiyalardan biri **keys stadi** hisoblanadi. Keys texnologiyasi bugungi kungacha asosan iqtisod va huquq sohalarida qo‘llab kelingan. Hozirgi kunda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishi e’tirof etilmoqda.

**Keys-stadi** – (inglizcha *case* – to‘plam, aniq vaziyat, *stadi* – ta’lim) keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiradigan haqiqiy yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan o‘qitish metodi.

### **Keys-stadi usuli qo‘llanilgan o‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi Ishlar bosqichi va mazmuni**

<b>Ishlar bosqichi va mazmuni</b>	<b>F a o l i y a t</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchi</b>
Tayyorgarlik	Tanishish uchun talabalarga keys materiallarini tayyorlaydi va avvalgi mashg‘ulotlarda arqatadi.	Keys mazmuni bilan tanishadilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish. (5 daq.)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining mavzusi, maqsadi, kutilayotgan natijalar va uni olib borish rejasи bilan tanishtiradi. Keys ahamiyatini va uni kasbiy bilimlarni rivojla nishiga ta’sirini tushuntiradi.	Diqqat qiladilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish (10 daq.)	2.1. Talabalar bilimini faollashtirish maqsadida mavzuning asosiy tushun-chalari bo‘yicha tezkor-so‘rov o‘tkazadi (ilova). 2.2. Amaliy mashg‘ulotda ishlash tartibi, baholash ko‘rsatkich va mezonlari bilan tanishtiradi (ilova).	Savollarga javob beradilar. Muhokama qiladilar, aniqlash tiruvchi savollar beradilar.
3-bosqich. Alovida Ishlash. (20 daq.)	3.1. Keys materiallarini muhokama qilishni tashkillashtiradi, ishlash qoidasi, vaziyatlarni tahlil qilish chizmasi, muammolarni ifodalanishiga e’tibor berishlariga qaratadi. 3.2. Vaziyatni mustaqil tahlil qilishni, muammoni ifodalashni, yechish yo’llarini aniqlashni, so‘ngra uni yechish topshirig‘ini beradi	Keys materiallari ni muhokama qiladilar, aniqlaydilar, savollar beradilar. Mustaqil ravishda tahlil qilish varag‘ini to‘ldiradilar, muammoni yechadilar.
4-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (20 daq.)	4.1. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi va topshiriq beradi: vaziyatni muhokama qilish va tahlil qilib ko‘rish, guruh uchun vaziyatni tahlil qilish varag‘ini to‘ldirish, yechish tartibini ishlab chiqish, topshiriqni yechish, taqdimotga tayyorlanish	Keysni yechish va taqdimot varag‘ini tayyorlash bo‘yicha harakatlar qiladilar
5-bosqich. Taqdimot (20 daq.)	5.1. Taqdimot, muhokama va guruhlar taqdimotini o‘zaro baholashni tashkil-lashtiradi. Javoblarni sharhlaydi, tahlil qilish va muammoli vaziyatni yechish jarayonida qilingan xulosalarga e’tibor qaratadi.	Guruhlar taqdimot Qiladilar. Boshqa talabalar munozarada ishtirok etadilar, savollar beradilar

## KONSEPTUAL JADVAL

O‘rganilayotgan tushuncha, hodisa, fikrlarni uch va undan ortiq jihat va ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi hamda yaxshi samara beradi. Tizimli fikrlashga o‘rgatish, muammoni tahlil qilish, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘rganilayotgan hodisalarning muhim belgilarini aniqlash, tadqiqot yo‘nalishini belgilash, internetda axborot qidirish uchun tayyanch so‘z va iboralarni tanlash maqsadlarida tuziladi.

Jadval quyidagicha tuziladi: gorizontal bo‘yicha taqqoslanadigan tushunchalar, vertikal bo‘yicha esa, ularning taqqoslanadigan turli jixat va xossalari joylashtiriladi.

Konseptual jadvalda o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining ancha qismini ixcham shaklda ifodalanadi. Bunday jadval mashg‘ulotning metodik ta’minotini yanada boyitadi. Muayyan matn bo‘yicha konseptual jadvallarni mikroguruuhlarda aqliy hujumdan foydalanib tuzish va ularni guruh bo‘yicha muhokama qilib, eng maqbul variantini qabul qilish amaliy mashg‘ulotlarning «anglash» fazasida yaxshi natija berishi mumkin. Konseptual jadval yordamida bir necha kasb yoki mutaxassisliklarni taqqoslash ham mumkin. Dars davomida o‘tkazilayotgan munozara davomida talabalarga konseptual jadval tuzish topshirig‘ini berish tavsiya etiladi. Bunday jadval tuzishni uyga vazifa berish esa talabalarning mustaqil bilish faoliyatini yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Fakultativ o‘quv kursini o‘qitishda **slaydlar, video, multivideo, qisqa metrajli hujjatli filmlardan** foydalanish mumkin Shuningdek, o‘qitishning an’naviy va ilg‘or usullarini, shuningdek, o‘qitishning an’naviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, ekspress so‘rovlari, test so‘rovlari, dasturiy o‘qitish, davra suhbatlarini o‘tkazish, muammoli o‘qitish texnik vositalarini qo‘llash, ekskursiya va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’lim-tarbiya jarayoni mashg‘ulotlari ma’ruza, muloqot, munozara, taqdimot tarzida tashkil etiladi. Ushbu mashg‘ulotlarni quyidagi algoritm (bilish, qo‘llash, tahlil qilish va natija) asosida amalga oshiriladi.

Talabalarga fakultativ o‘quv kursini zamonaviy usulda o‘rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- “Aqliy hujum”, “Debatlar” “Reynstorming”, “Klaster” (axborotni yig‘ish), “Sinkveyn” (axborotni yig‘ish, “Akvarium”, “Charxpak”, “G‘oyalar bahsi”, “Matbuot-konferensiyasi” kabi yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish).
- Talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta’minlashga erishish.
- Talabalarning kichik guruhlarga bo‘lib, murabbiy-ustozlar rahbarligida mustaqil bilim olishga o‘rgatish.

- ma’ruza matnidagi jadval diagramma va raqamli ma’lumotlarni oldindan tayyorlab, guruh talabalariga tarqatish. (Bu usul o‘qituvchining vaqtini tejab, talabalarni ortiqcha yozishdan ozod qiladi).
- Test savollari tuzish.
- “Tayanch” iboralarni ishlab chiqib, talabalarga ularni mukammal o‘zlashtirishda ko‘maklashish.
- talabalarni zamonaviy kompyuter dasturlari asosida tayyorlangan slaydlar bilan ko‘rgazmali ma’ruza qilishga o‘rgatish kabi usullardan foydalanish mumkin.

## **MUSTAQIL TA’LIMNI AMALGA OSHIRISH**

Talaba mustaqil tayyorlanganda fakulteti o‘quv kursi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- tarqatma materiallar bo‘yicha fakultativ o‘quv kurs mavzularni o‘zlashtirish. Bunda o‘qituvchi asosiy materialning bayon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim bo‘ladi. Tarqatma materiallar hajmi har bir mavzu bo‘yicha 3-5 sahifa bo‘lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.
- O‘qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishslash. Bu usul mashg‘ulotlar hamda mustaqil ishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida qo‘llanilishi mumkin.
- O‘z-o‘zini baholash orqali bilimni uzlucksiz nazorat qilish. Talaba maxsus formula yordamida o‘z bilimini o‘zi baholaydi va maxsus nazorat daftarlariga qayd etib boradi.
- Fakultativ o‘quv mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘shimcha adabiyotlar ishslash hamda ularni o‘rganish;
- Talabalarning mustaqil ta’lim va taqdimot bilan bogliq holda fakultativ o‘quv kursining muayyan mavzularni chuqur o‘rganish. Mustaqil ishning bu shakli barcha semestr talabalariga tavsiya etiladi.
- Internet materiallari.
- Audio manbalar.
- Axborot-resurs markazlaridagi mavjud davriy matbuot materiallari.
- Avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash. Bu mashg‘ulotlar talabani bilimlarni yanada mustahkamlaydi, tafakkurini boyitadi

## **TAQDIMOTLARNI AMALGA OSHIRISH**

Taqdimotlar fakultativ o‘quv kursda olingan bilim, malaka va ko‘nikmaning amalda qo‘llanilishi, ya’ni yangi shaxs madaniyati tarziga aylanganligi darajasini ko‘rsatuvchi indikator vazifasini o‘taydi. Taqdimotlar o‘quv taqvimiylar rejada ko‘rsatilgan mavzular doirasida tavsiya etilgan mavzularga bag‘ishlanadi. Talaba mavzuni tanlashga imkon beriladi.

Taqdimotga tayyorlanish jarayonida talabaga quyidagi tavsiyalar va ko‘mak beriladi :

- fakultativ o‘quv kursi mavzulari bo‘yicha adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, qo‘sishimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o‘rganish.
- internet materiallarini topish va unumli foydalanish;
- adivizual manbalardan foydalanish;
- axborot resurslari markazidagi mavjud davriy matbuot materiallaridan foydalanish.

### **TAVSIYA ETILADIGAN TAQDIMOT MAVZULARI:**

1. Bobur hayoti va ijodining o‘z asarlarida talqin etilishi.
2. Bobur – shoh va shoir.
3. Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi.
4. Bobur ijodiy merosining o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilish tarixi.
5. Bobur va uning avlodlari.
6. Bobur va temuriyzodalar.
7. Bobur – sohibdevon, sohir shoir.
8. Bobur – yirik adabiyot nazariyotchisi.
9. Bobur lirkasidagi janrlar tasnifi va tavsifi.
10. Bobur g‘azallarida ishq talqini.
11. Bobur she’rlarida yor va diyor tasviri.
12. Bobur ruboilyarida sog‘inch motivi.
13. Bobur g‘azallarining obrazlar tizimi.
14. Boburning shoirlik mahorati.
15. “Boburnoma” – tarixiy asar.
16. “Boburnoma”da san’at va adabiyot ahlining ta’rif va tavsifi.
17. “Boburnoma” da Bobur siymosi.
18. Bobur harbiy taktikasining “Boburnoma”da aks etishi.
19. “Boburnoma”da xalq og‘zaki ijodi namunalari.
20. “Boburnoma” da tarixiy shaxslar tasviri va tavsifi.
21. “Boburnoma”ning dunyo tillariga tarjimalari.
22. “Boburnoma”ning dunyo olimlari talqinida.
23. Bobur –tarjimon.
24. Bobur – adabiyotshunos.
25. Boburning harbiy yurishlari.
26. Boburning Kobuldagি saltanati.
27. Bobur Hindistonda.
28. Bobur – fidoyi ota.
29. Zahiriddin Muhammad Bobur – bunyodkor.
30. Gulbadanbeginning “Humoyunnomma” asarida Bobur siymosi.

## VIII. FAKULTATIV KURS MAVZULARINING QISQACHA MAZMUNI

### MA’RUZALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati.  
**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi shoh va shoир Zahiriddin Muhammad Boburning hayot yo‘li – uning hukmdor sifatidagi faoliyati – harbiy yurishlari, siyosiy qarashlari, ijtimoyi faoliyati va axloqiy-ta’limiy fikr-qarashlari haqida ma’lumot beriladi. Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistonagi faoliyati shoирning o‘zi va zamondoshlari, jahon olimlari va siyosatchilarining fikrlari bilan izohlab tushuntiradi.

Shoh va shoир Boburning jahon tarixidagi fenomenal hodisa ekanligi asarlari va hayot yo‘liga bog‘lab ko‘rsatib beradi.

(*Shu o‘rinda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati yoritilgan tegishli multimedia materiallari namoyish etiladi*)

#### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
2. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)
3. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘sishchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
4. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘sishchacha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalfrga quyidagi savollar beriladi:

1-jamoaga. Boburning Movaraunnahrdan chiqib ketishini qanday sharhlaysiz?“

2-jamoaga. Boburning Kobulda amalga oshirgan ishlarini qanday baholaysiz?

3-jamoaga. Boburning dastlab Hindistonni mutlaqo yoqtirmaganligi, keyinchalik esa uni ta’rifu tavsif qilishini qanday izohlaysiz?

**Qo‘llash:** adabiyotshunos, tarixchi, matnshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** Talaba Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr, Boburning hayot yo‘li, u olib borgan kurashlar haqida muayyan bilimga ega bo‘ladi, Boburning shaxs sifatidagi qiyofasini manbalar asosida tiklashni o‘rgana boshlaydilar, shoh va shoir Bobur haqidagi tasavvurlari tiniqlashadi.

**Tayanch tushunchalar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, shoh, shoir, temuriylar, Andijon, Samarqand, Movaraunnahr, Kobul, Hindiston, vatandan bosh olib ketish, hijron, sog‘inch, badiiy ijod.

**Ikkinchi mashg‘ulot:** Bobur she’riyati.

**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi talabalarga Boburning lirik merosi, devonlari haqidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Shoir g‘azallarining mavzu ko‘lami va badiiy xususiyatlarini u yashagan davrdagi an’ana va o‘ziga xoslik masalasi doirasida tushuntiradi. Bobur she’riyatidagi o‘ziga xoslik, realistik tasvir masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Ayniqsa, ruboilyardagi ko‘ngil talqinlari, tafakkur evrilishlarining ona yurt sog‘inchi, o‘zlikni anglash kabi masalalar bilan bog‘lanishini maxsus – misollar va ularning tahlili yordamida tushuntirib beradi. Shoirning lirik turning boshqa janrlaridagi she’rlari ham mavzu va badiiy xususiyatlari asosida tahliliyo‘sinda taqdim etiladi.

(*Shu o‘rinda Bobur she’riyati mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi*)

### **Interfaol metod**

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Bobur g‘azallarining mavzu ko‘lami va badiiy xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zları yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo‘llash:** adabiyotshunos, tarixchi, matnshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** Boburning lirik merosi, devonlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shoir g'azallari, ularning mavzu ko'lami, badiiy xususiyatlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar.

Boburning boshqa lirik janrlardagi she'rlari, shu jumladan, ruboiylarida ko'tarilgan mavzularni shoir shaxsi bilan bog'lab tahlil qilish ko'nikmasini egallaydilar.

**Tayanch tushunchalar:** devon, lirik asar, she'riyat, janr, g'azal, ruboiy, tuyuq, an'ana va o'ziga xoslik, mavzu, g'oya, obraz, lirik qahramon, timsol, badiiy san'at va tasvir vositalari.

**Ucinchi mashg'ulot:** "Boburnoma" – memuar asar.

**O'tkazish shakli:** ma'ruza.

O'qituvchi talabalarni memuar asarga xos bo'lgan muhim xususiyatlar bilan tanishtiradi. Muallifning o'zi bilan bog'liq voqealarni asvirlashida dunyoqarashi, idrok ko'lami, qamrovi, qiziqishlari va albatta, iste'dodining namoyon bo'lishi muhimligiga e'tiborni qaratadi. Boburning mukammal shaxs va nozik did sohibi ekanligi, qiziqishlari doirasi, orzu-istiklarining "Boburnoma"da aks etganligini asosli misollar yordamid tushuntiradi. "Boburnoma"da adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va boshqa sohalarga oid masalalarning yoritilishi, nabototga oid, hayvonot olami haqidagi qimmatli ma'lumotlarning berilishi uning qimmatini oshirganligini izohlaydi.

(*Shu o'rinda "Boburnoma" – memuar asar" mavzusiga oid multimedia materiallari namoyish etiladi*)

### Interfaol metod

Yoshlar 2 guruhga bo'linadilar. 1-guruh "Boburnoma"dagi tarixiy shaxslar tasvirini, 2-guruh "Boburnoma"da muallifning adabiyotshunoslikka oid qarashlarini tahlil etadilar. Mashg'ulot jarayonida olingan tushuncha va ma'lumotlar asosida to'g'ri va noto'g'ri fikrlash holatlari ko'rsatib beriladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlarning asosli ekanligiga qarab ruhan rag'batlantiriladi.

**Qo'llash:** adabiyotshunoslik, tarix, matnshunoslik sohalari mutaxassislarining fikrlari muhim ahamiyatga ega.

**Natija:** Talabalar memuar asarga xos bo'lgan muhim xususiyatlar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Bunday asarda ijodkorning idrok ko'lami, qamrovi, qiziqishlari va albatta, iste'dodi muhimligini tushunib oladilar. Boburning mukammal shaxs va nozik did sohibi ekanligi, qiziqishlari doirasi, orzu-istiklarining "Boburnoma"da aks etganligi haqidagi bilimlarini chuqurlashtiradilar. "Boburnoma"da adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san'atshunoslik va boshqa sohalarga oid masalalarning yoritilishi, nabototga oid, hayvonot olami haqidagi qimmatli ma'lumotlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

**Tayanch tushunchalar:** “Boburnoma”, memuar asar, ijodkor shaxsi, realistik tasvir, voqealar rivoji, tarixiy siymolar, muallif dunyoqarashi.

**To‘rtinchi mashg‘ulot:** Boburning tarjima asari (“Voldiya”) va risolalari  
**O‘tkazish shakli:** ma’ruza.

O‘qituvchi Boburning Sharq mumtoz adabiyotiga, diniy manbalarga munosabati, shuningdek Xoja Ahror Valiyga ruhoniy munosabati haqida hamda “Boburnoma”da bu masalalarning shoir tomonidan yoritilishi xususidagi fikrlarini bayon qiladi. Ayniqsa, “Voldiya” asari, uni tarjima qilish jarayoni haqidagi tafsilotlarga e’tiborni qaratadi. Asarning mazmuni haqida talabalarga ma’lumot beradi. Boburning serqirra ijodkor ekanligi qiziqishlari va mas’uliyattiga bog‘lab tushuntiriladi.

“Risolai aruz” (“Muxtasar”) asarining mohiyati haqida fikr yuritiladi.

“Mubayyin” asarining Bobur faoliyatidagi o‘rni va ahamiyati haqida ma’lumot beriladi. Shu o‘rinda “Xatti Boburiy” (qisman yetib kelgan), “Risolayi musiqiy” asarlariga (hali topilmagan) ham to‘xtab o‘tiladi.

(*Shu o‘rinda “Boburning tarjima asari (“Voldiya”) va risolalari” mavzusidagi multimedia materiallari namoyish etiladi*)

### Interfaol metod

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Boburning “Voldiya” asari qanday asar, uning yozilish tarixi qaytarzda kechgan?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zлари yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo‘llash:** adabiyotshunos, tarixchi, dinshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** Boburning “Voldiya” asari tarjimasi, bu asar va uning muallifi bilan bog‘liq tarfsilotlar, asarni tarjima qilish jarayoni haqida tasavvurga va bilimga ega bo‘ladilar. Boburning serqirra ijodkor ekanligi, “Risolai aruz” (“Muxtasar”), “Mubayyin” asarlarining mazmun-mohiyatini tushunib oladilar. Shoirning “Xatti Boburiy”, “Risolayi musiqiy” asarlari haqidagi tasavvurlari shakllanadi.

**Tayanch tushunchalar:** Boburning ilmiy merosi, “Risolai aruz”, diniy mavzudagi asarlar, “Mubayyin”, tarjima, “Voldiyya”, Xoja Ahror Valiy.

## MULOQOTLAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Bobur she’riyatining mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari

**O‘tkazish shakli:** muloqot

Bobur she’rlarida an’anviy mavzularning davom etishi, ayni paytda ularning yangilanishi shoir she’rlari misolida tushuntiriladi. Bobur she’rlarida realistik tasvir elementlarining kuchayishi, buning sabablari asoslanadi. Shoир she’rlarining mavzu ko‘lami, shu jumladan, sevgi, visol, hijron, do’stlik, sadoqat, vatan, sog‘inch motiv va mazulariga e’tibor qaratiladi. Shoир she’riyatining janrlari – g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq va boshqalar haqida tahliliy ma’lumotlar beriladi. Shoир ruboiylarida ko‘ngil talqinlari va tafakkur evrilishlari misollar yordamida tahlil qilinadi.

### Interfaol metod

O‘qituvchi yoshlarga FSMU texnologiyasining to‘rt bosqichi yozilgan qog‘oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to‘ldirishni iltimos qiladi.

Vazifa. Bobur she’rlarida realistik tasvir elementlarining kuchayishi sabablari nimada?

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating;

M – ko‘rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U – fikringizni umulashtiring.

Yoshlarning o‘zлari yozgan fikrlarini o‘qib himoya qilishlari so‘raladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga, bahslashish madaniyatini o‘rgatadi. O‘qituvchi esa ularning fikrlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mavzuni to‘g‘ri anglashlariga harakat qiladi.

**Qo‘llash:** adabiyotshunos, tarixchi, matnshunos mutaxassislar bilan birgalikda interfaol uslubda mashg‘ulot olib boriladi.

**Natija:** Bobur she’rlarida an’anviy mavzularning davom etganligi va ayni paytda ularning yangilanganligini tushunib oladilar. Shoир she’rlarida realistik tasvir elementlarining kuchayishi, buning sabablari haqida muayyan xulosaga keladilar. Shoир she’rlarining mavzu ko‘lami, shu jumladan, sevgi, visol, hijron, do’stlik, sadoqat, vatan, sog‘inch motiv va mazulari haqida bilimlarini chuqurlashtiradilar. Shoир she’riyatining janrlari – g‘azal, ruboiy, qit’a, tuyuq va boshqalar haqida tahliliy ma’lumotlar ega bo‘ladilar. Shoир ruboiylarida ko‘ngil talqinlari va tafakkur evrilishlarini anglab yetadilar.

## **Ikkinchı mashg‘ulot: “Boburnoma” – serqirra, ma’lumotlarga boy manba O’tkazish shakli: muloqot**

“Boburnoma”ning yaratilish tarixi bilan bog‘liq masalalarga e’tibor qaratiladi. “Boburnoma”da davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ular bilan bog‘liq holda tarixiy siymolar tasvirining berilishi va bunda ijodkorning mahorati misollar yordamida tushuntiriladi. Asardan adabiyotshunoslik tilshunoslik, san’atshunoslik, etnografiya, nabotot, hayvonot olami haqidagi fikrlar tanlanib tahlil qilinadi. Shoiring badiiy mahorati joylar tasviri, tarixiy shaxslar qiyofasini chizish, madaniy hayotni ta’riflash va boshqa masalalarga e’tibor bergen holda tahlil qilinadi.

### **Interfaol metod**

Mashg‘ulot zamонавиј pedagogik texnologiyaning “Insert texnikasi” metodi asosida o’tkaziladi. Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o’zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo’llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o’taydi. O’qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi. Talabalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o’z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

“V” – tanish ma'lumot.

“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.

“–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, talabalar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma'lumotlar o’qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohланади, ularning mohiyati to‘ liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Natija:** Talabalar “Boburnoma”ning yaratilish tarixi bilan bog‘liq jihatlarni bilib oladilar. “Boburnoma”da davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ular bilan bog‘liq holda tarixiy siymolar tasvirining berilishi va bunda ijodkorning mahorati haqida tasavvurga, bilimga ega bo‘ladilar. Asarda muallif taqdim etgan turli ma'lumotlarni tasniflab sharhlashni o’rganadilar. “Boburnoma”ni tahlil qilishda adibning badiiy mahoratiga e’tibor qaratish muhimligi haqida xulosa chiqaradilar.

**Tayanch tushunchalar:** “Boburnoma”, serqirra manba, tarixiy haqiqat, tarixiy siymolar, badiiy tasvir, badiiy mahorat.

## MUNOZARALAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Shoir lirikasida muhabbat va sog‘inch talqini.  
**O‘tkazish shakli:** munozara.

Bobur she’rlarida muhabbat va sog‘inch eng muhim mavzulardan biri ekanligi shoir Boburning iste’dodi va hayot yo‘liga bog‘lab tahlil etiladi. Shoir Sharqda mumtoz she’riyat an’analarni davom ettirish bilan birga o‘z hasbi holini kuylashga moyil bo‘lgani va (bunga imkon topgani) she’rlarida an’anaviy mavzu bilan bog‘liq holda realistik voqelikning badiiy in’ikosini ko‘rish mumkinligiga e’tibor qaratiladi. Bobur g‘azallaridagi ishq tug‘yonlari yor sog‘inchi, do‘sht hajri, unga mushtoqlik bilan uyg‘unlashsa, ruboilyarida vatan sog‘inchi muhim o‘rin tutishi g‘azal va ruboilyar tahlili orqali tushuntiriladi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamонавиу педагогик төхнолоѓианинг “Insert texnikasi” методи асосида о‘тказилади. Mazkur метод талабаларда янги ахборотлар тизимини қабул қилиш ва биملарни о‘злаштирилишини ўенгиллаштириш мақсадида қо‘лланилади, шунингдек, бу метод талабалар учун хотира mashqi vazifasini ham o‘taydi. O‘qituvchi янги mavzu мohiyatini yorituvchi matnni талабаларга таркатади. Талабаларга individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgililar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda талабаларга quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

- “V” – tanish ma'lumot.
- “?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.
- “Q” – bu ma'lumot men uchun yangilik.
- “–” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, талабалар учун notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma'lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohланади, ularning мohiyati to‘ liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunланади.

**Natija:** Bobur lirik she’rlarining mavzu ko‘lamini aniqlashni, muhabbat va sog‘inch mavzusidagi she’rlarini tahlil qilishni o‘rganadilar. Bobur she’rlaridagi hasbi hol Sharq mumtoz she’riyatidagi an’analarni yangilashga, realistik voqelikning badiiy ifodalashga imkon berishini anglab oladilar. Boburning hasbi hol she’rlarni, ayniqsa, yurt sog‘inchi aks etgan va armonga yo‘g‘rilgan ruboilyarini shoir hayoti va “Boburnoma”da aks etgan ma'lumotlar асосида tahlil qilish muhimligi haqidagi xulosalarga keladilar.

**Tayanch tushunchalar:** lirik asar, g‘azal, ruboiy, qit’a, an’ana, yangilik, o‘ziga xoslik, ishq mavzusi, vatanga muhabbat va uni sog‘inish, badiiy san’at va tasvirvomitalari.

**Ikkinchi mashg‘ulot:** Bobur olim va tarjimon (risolalalri va tarjima asarlari misolida).

**O‘tkazish shakli:** munozara.

Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyotshunos olim sifatida “Boburnoma” asarida muayyan fikrlarni bayon qilganligi ta’kidlanib, adabiyotshunoslikning ko‘p masalalariga e’tibor qaratganligi, shu bilan birga “Risolai aruz” kitobini yozganligi ta’kidlanib, bu asar haqida ma’lumot beriladi. Bobur fiqhga oid «Mubayyin» (bayon etilgan) nomli she’riy asari farz asoslarini (imon, namoz, ro‘za, zakot, haj) o‘tash masalalarni nazarda tutganligi va farzandlari uchun yozilganligiga e’tibor qaratiladi. Boburning Xoja Ubaydulloh Ahror va ularning farzandu nevaralariga hurmat-e’tibori katta bo‘lganligi haqidagi «Boburnoma»da tafsilotlardan foydalanilgan holda Xoja Ubaydulloh Ahrorning fors tilida nasrda yozilgan «Voldiya» asarini she’riy usulda o‘zbek tiliga tarjima qilganligi haqidagi ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, Boburning bizgacha to‘liq yetib kelmagan “Xatti Boburiy” hamda musiqaga oid ayrim kitoblarda tilga olingan musiqaga oid risolasi uning qiziqishlari ko‘lamini namoyon qilishi ta’kidlanadi.

### Interfaol metod

Mashg‘ulot zamonaviy pedagogik texnologiyaning “Munozarali dars” metodi asosida o‘tkaziladi. Mashg‘ulot o‘qituvchining kirish so‘zi bilan ochiladi. O‘qituvchining kirish so‘zi tugagandan so‘ng “Munozarali dars”ning talablarini tushuntiradi. Bu quyidagilardan iborat:

5. Guruh talabalari kontingentdan kelib chiqqan holda 3 yoki 4 jamoaga ajratiladi.
6. Jamoa o‘ziga nom tanlaydi (jamoaning nomi falsafiy-estetik ma’noni anglatishi kerak)
7. Har bir jamoa o‘zining yetakchi liderini saylaydi. Jamoaning fikrini lider ayta olishi mumkin, qo‘sishchalar liderning fikridan keyin bildiriladi.
8. Baholashda jamoa a’zolarining javobidagi mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash, hayotiy isbotlash masalalari ham hisobga olinishi ta’kidanadi.

Bir jamoa ikkinchi jamoa fikrini tanqid qilishi, sharhlashi, qo‘sishchacha fikr bildirish va ilmiy savollar bilan murojaat qilishi mumkin. Munozarali darsda jamoalfrga quyidagi savollar beriladi:

- 1-jamoaga. “Risolai aruz” haqida nimalarni bilasiz?
- 2-jamoaga. “Mubayyin” qanday asar?
- 3-jamoaga. “Voldiya” haqida nimalarni bilasiz?

**Qo‘llash:** mashg‘ulot adabiyotshunos, tarixchi, ma’naviyat targ‘ibotchilarini, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** “Boburnoma” asarida muallifning noyob ilmiy salohiyat namoyon bo‘lishini idrok etadilar. Boburning adabiyotshunoslikning ko‘p masalalariga e’tibor qaratishini tushunib oladilar hamda “Risolai aruz” “Mubayyin” “Voldiya” asarlarining yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, bugungi kundagi ma’rifiy qimmati

haqida muayyan bilimlarni egallaydilar. Shoirning bizgacha to‘litq yetib kelmagan “Xatti Boburiy” hamda musiqaga oid ayrim kitoblarda tilga olingan “Risolai musiqiy” risolasi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Boburning serqirra faoliyatining ilmiy-ma’rifiy qimmatini tushunib oladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Bobur, “Boburnoma”, “Risolai aruz”, “Mubayyin”, “Voldiya”, adabiyotshunoslik, ilmiy-ma’rifiy.

## TAQDIMOTLAR

**Birinchi mashg‘ulot:** Boburning hayot yo‘li

**O‘tkazish shakli:** taqdimot

Taqdimotda Bobur hayot yo‘lining murakkabligi, jangu jadallarga to‘laligi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Boburning hayotsevarligi, do‘stu yorini e’zozlaydigan ko‘ngil kishisi ekanligiga e’tibor qaratilib, bu sifatlar uning hayot yo‘lini o‘zig xos o‘zanda kechishi olib kelganligi tushuntiriladi. Bobur hayot yo‘li Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistondagi faoliyati uning shaxsiy sifatlari bilan bog‘lab ko‘rsatiladi, Boburning “Boburnoma”dagi iqrorlari, bu borada o‘zi bitgan tafsilotlar tanlab olinib tahlil etiladi.

**Qo‘llash:** mashg‘ulot pedagog, adabiyotshunos, tarixchi, ma’naviyat targ‘ibotchilari, hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan birgalikda olib boriladi.

**Natija:** Bobur hayot yo‘lining murakkabligi, jangu jadallarga to‘laligi, shu bilan birga, uning hayotsevarligi, do‘stu yorini e’zozlaydigan ko‘ngil kishisi ekanligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, shoirning hayotda erishgan yutuqlari mohiyatini tushunib yetadilar. Bobur hayot yo‘lini – Movarounnahr, Afg‘oniston va Hindistondagi faoliyatini uning shaxsiy sifatlari bilan bog‘lab idrok etishga o‘rganadilar. “Boburnoma”dagi Boburning iqrorlarini, o‘zi haqida bitgan tafsilotlarga boy o‘rinlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradilar.

**Tayanch tushunchalar:** Bobur, hayot yo‘li, murakkabliklar va ziddiyatlar, hayotsevarlik, yurtgirlik, Boburning iqrorlari.

**Ikkinci mashg‘ulot:** Boburning asarlari (devonlari, nashrlari, “Boburnoma”, uning tarjimalari, risolalari va boshqalar)

**O‘tkazish shakli:** taqdimot

Taqdimotda dunyo tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning sarkardalar qatorida alohida o‘ringa ega ekanligi va ayni paytda jahon madaniyati tarixida uning asarlari, ayniqsa, “Boburnoma”ning alohida o‘rin tutishi ta’kidlanadi. Bu

asar Bobur yashagan davrda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot voqeligini tasvirlash bilan birga, ko‘p sohalarga tegishli ma’lumotlarga boyligi bilan e’tiborni tortishi misollar bilan tushuntiriladi. Boburning devonlari, ulardagi she’rlar maxsus ko‘rib chiqiladi. Boburning ilmiy (“Aruz risolasi”) va diniy mavzudagi (“Mubayyin”) asarlari hamda “Voldiya” asari tarjimasining nafaqat Bobur ijodidagi, balki adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixidagi o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratiladi.

**Qo‘llash:** o‘zbek adabiyoti tarixi, adabiyot nazariyasi, dinshunoslik, fanlarining amaliy mashg‘ulotlarida qo‘llash mumkin.

**Natija:** Dunyo sarkardalari orasida muayyan mavqega ega bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniyati tarixida ham asarlari, ayniqsa, “Boburnoma”tufayli alohida o‘rin tutishi sabablarini tushunib oladilar, asarning Bobur yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot voqeligini keng ko‘lamda tasvirlashi, ko‘plab sohalarga tegishli ma’lumotlarga boyligini anglab yetadilar. Boburning devonlari, ulardagi she’rlar haqida tegishli bilimlarni egallaydilar. Boburning ilmiy (“Aruz risolasi”) va diniy mavzudagi (“Mubayyin”) asarlari hamda “Voldiya” asari tarjimasining nafaqat Bobur ijodidagi, balki adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz tarixidagi muhim ahamiyatini bilib oladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Bobur asarlari, devonlari, “Boburnoma”, “Aruz risolasi”, “Mubayyin”, “Voldiya”.

## **IX. O‘QUV-USLUBIY ADABIYOTLAR VA ELEKTRON RESURSLARI RO‘YXATI:**

### **Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar**

8. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. –Т.: Шарқ, 2014.
9. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. –Т.: Шарқ, 2002.
10. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек адабий тилига табдили.–Т.: “Ўқитувчи”, 2008.
11. Бобур. Муҳтасар. Т.: Фан, 1971.
12. Захириддин Мухаммад Бобур. Ғарибинг Андижонийдур.–Т.: “Шарқ” НМАК, 2008.
13. Мирзо Мухаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. –Т.: “O‘zbekiston”, 2011/
14. Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати (“Ҳабиб ус-сияр”дан). –Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.
15. Азимжонова С., Захириддин Мухаммад Бобур./ Мақолалар тўплами. – Т., 1995.

## **Qo‘shimcha adabiyotlar**

10. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб.– Т.: 1993.
11. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. –Т.: Фан, 1971.
12. Ҳасан Қудратиллаев. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.
13. Уилям Эрскин. Бобур Ҳиндистонда. – Т.: Чўлпон, 1995.
14. Гулбаданбегим. Ҳумоюннома. –Т.: “Маънавият”, 1998
15. Турғун Файзиев. Бобур ва унинг авлодлари.–Т.,1996.
16. Турғун Файзиев. Темурий маликалар.–Т., 1994.
17. Вильям Рашибрук. Ўн олтинчи аср бунёдкори. –Т.: “Шарқ” НМАК, 2011.
18. Файбуллоҳ Ас-Салом, Неъматуллоҳ Отажон. Жаҳонгашта “Бобурнома”, –Т., 1996.
19. Машрабов З., Шокаримов С., Асрларни бўйлаган Бобур. – Тошкент, 1997.

## **Elektron resurslar**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
4. [www.qr.natlib.uz](http://www.qr.natlib.uz)
5. [www.media.natlib.uz](http://www.media.natlib.uz)
6. [www.diss.natlib.uz](http://www.diss.natlib.uz)